

**MAVZU: TEMPERAMENT VA UNING TIPLARI.**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo`nalishi
talabasi **Azamatova Hulkar.***

Annotatsiya: Ushbu ishda temperament tushunchasi va uning psixologik jihatlarini o'rganilgan. Temperament tiplari – xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik tahlil qilinib, har birining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, temperamentning inson faoliyatiga va shaxsiy xususiyatlariga ta'siri yoritilgan.

Abstract: This paper explores the concept of temperament and its psychological aspects. It analyzes the four main types of temperament – choleric, sanguine, phlegmatic, and melancholic – highlighting their unique characteristics. The study also examines how temperament affects human behavior and individual personality traits.

Аннотация: В данной работе изучается понятие темперамента и его психологические аспекты. Рассматриваются четыре основных типа темперамента — холерик, сангвиник, флегматик и меланхолик, описываются их особенности. Также освещается влияние темперамента на поведение человека и личностные качества.

Kalit so`zlar: temperament, temperament tiplari, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, psixologiya, shaxs.

Keywords: Temperament, types of temperament, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic, psychology, personality.

Ключевые слова: Темперамент, типы темперамента, холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик, психология, личность.

Temperament- odamning individual xatti-harakatlarini ifodalab beruvchi turg'un va tug'ma hisoblanadigan psixofizologik xususiyatlar jamlanmasidir.



Temperament tug'ma va shu bilan birga o'zgarmas. Inson qaysi temperamentning egasi hisoblansa umrining so'ngiga qadar shu temperamentda qoladi.

I.P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta'riflaydi: "Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir".

Har bir insonning o'z temperamenti bo'ladi. Lekin ularning temperamentlarida bir xususiyatning individual holatda emas, balki tafovutlar bilan uchrashi kuzatiladi.

Temperamentlarni asosan 4tipga bo'lib kelishgan.

1. Xolerik
2. Sangvinik
3. Melanxolik
4. Flegmatik.

Xolerik- temperamentning jizzaki, qiziqqon, chaqqon, beqaror, hissiy reaksiyaga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu tip juda harakatchan va kata ish qobiliyatiga ega. Biroq boshlagan ishini oxiriga yetkazmay tezda tashlab qo'yadi. Xolerik hech qachon bir maromda ishlay olmaydi.

Ushbu temperamentga mansub bolalar serg'ayrat bo'lishadi. Shuningdek arazchan, serjahl va tajangligi bilan ko'zga tashlanib turishadi. Xolerik temperamentga mansub insonlardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo'ladi.

Sangvinik- tirishqoq, ta'sirchan, quvnoq va chaqqon odamlar. Ular tez moslashuvchan va atrofda bo'lyotgan voqea-hodisalarga reaksiyalari kuchli. Sangvinik bolalar har qanday ishga qatnashish uchun doimo tayyor bo'lishadi. Lekin qanday tez boshlagan bo'lishsa, shu ishlarini tezda qaytishlari ham mumkin. Kayfiyatlari esa o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

Melanxolik –ushbu temperament egalari zaif, yig'loqi, g'amgin va jur'atsiz odamlar hisoblanishadi. Ular tezda xafa bo'lishadi. Temperamentdagi inson arziyas qiyinchiliklarga ham bardosh bera olishmaydi va kurashdan voz kechishadi. Shuningdek, ular o'z mo'min-qobilligi, yuvoshligi bilan va murojaatlarga uyalib,



tortinib javob berishllari bilan ajralib turishadi. Ularning kayfiyatlari barqaror va boshqa temperamentlarga nisbatan davomiydir.

Flegmatik – hissiyotning juda sekin va kuchsiz qo`zg`alishi, hamda uzoq davom etmasligidir. Ularning psixik jarayonlari sust va kuchsiz bo`ladi. Ular tashabbus ko`rsatishga moyil emaslar. Flegmatikni ko`p hollarda sekin yonuvchi olovga o`xshatishadi. U uzoq yonuvchi alangadir. Ushbu temperament kishilari tez javob berish lozim bo`lgan vaqtlarda vaqtni qo`ldan boy berib qo`yishadi.

Xulosa:

Har bir insonda temperament aniq bir holatda uchramasligi ham mumkin. Masalan, bir shaxsda 70% sangvinik va 30% flegmatik xususiyatlari qo`shilib kelishi mumkin. Lekin hech kimda temperament nisbati 50/50 nisbatda uchramaydi. Har doim bir tip o`z ustunligiga ega bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Ibodullayev. “Tibbiyot psixologiyasi”. Darslik, 3-nashr., T.,2019.,
2. A.V.Petrovskiy, “Umumiy psixologiya”, 1992-yil.
3. P.V.Ivanov. “Umumiy psixologiya”, 1972-yil.
4. www.ziynet.uz